

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**«KELISHILDI»
Oliy va o‘rta maxsus
ta‘lim vazirligi**



« — » 2020-y.



**«TASDIQLAYMAN»
TDPU rektori
A.Yu. Umarov**

« — » 2020-y.

**5112100- Mehnat ta‘limi (texnologik ta‘lim) ta‘lim yo‘nalishi
negizidagi:**

5A112101 - Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologik
ta‘lim)

**magistratura mutaxassisliklariga kiruvchilar uchun maxsus
(ixtisoslik) fanlaridan**

DASTUR

Toshkent – 2020-y.

Annotatsiya

Dastur 5A112101 -Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta'lim) magistratura mutaxassisligiga kiruvchilar uchun 5112100-Mehnat ta'limi ta'lim yo'nalishining 2016-2017 o'quv yilida tasdiqlangan o'quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzilgan.

Tuzuvchilar:

Isyanov R.G – TDPU “Texnologik ta'lim” kafedrası mudiri p.f.n., dotsent.

Abduxairov R.A – TDPU “Texnologik ta'lim” kafedrası o'qituvchisi (RhD).

Avazboyev.A.I- TDPU “Texnologik ta'lim” kafedrası dotsenti,p.f.n.

Dastur Texnologik ta'lim fakultetining 2020-yil 11-iyuldagi № 11 sonli Kengashi yig'ilishida muxokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

5112100-Mehnat ta'limi bakalavrlar ta'lim yo'nalishi-pedagogika sohasidagi yo'nalish bo'lib, u umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha pedagogik kadr jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

Ta'lim yo'nalishi negizidagi mutaxassislikning vazifasi- talabalar bilimlarini chuqurlashtirish va bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha muvofiq kasb faoliyati sohasida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi,maxsus bilimlarni, kasb faoliyati ko'nikmalari va uquvlarini shakllantirishi, ixtisoslikning aniq kasbiy va ilmiy yo'nalishlari bilan tanishtirish, kasb faoliyati xususiyatlari, faoliyatning ustuvor jihatlari, malakaviy talab hamda egallanishi zarur bo'lgan asosiy malakalarni tarkib toptirishi, kasbiy-yo'naltirilgan talablar, ijtimoiy madaniy sifatlar, mutaxassislikka xos bo'lgan sifatlar (kasbiy yo'nalganlik, bilimdonligi, kasbiy layoqat)ni rivojlantirishi, bo'lajak kasbiy faoliyat individual metodining asosi sifatida, o'quv-pedagogik harakatlarning reproduktiv va ijodiy usullarini shakllantirish; muhim kasbiy sifatlarni rivojlantirish, kasbiy va shaxsiy o'zini rivojlantirish ehtiyojini yuzaga keltirishi, aniq pedagogik vaziyatda ma'lum masalalarni ajratib olish va ularni hal qilish usuli sifatida pedagogik tafakkurni rivojlantirishi bo'yicha bo'yicha hamda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bilimlarini oshirish va ko'nikma hosil qilishdan iboratdir.

5112100-Mehnat ta'limi (Texnologik ta'lim) bakalavriat ta'lim yo'nalishi negizida 5A112101-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta'lim) magistratura mutaxassisligiga kiruvchi talabgorlar uchun ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga asosan 5 ta umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha: "Texnologiya (Mehnat ta'limi) fanini o'qitish metodikasi", "Texnologiya ta'limi praktikumi", "Texnik ijodkorlik va dizayn" , "Texnologiya va dizayn", "Servis xizmati" fanlaridan test savollari shakllantirilgan. Bu fanlar o'z negizida qamrab olingan ma'lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

TEXNOLOGIYA (MEHNAT TA'LIMI) FANINI O'QITISH

METODIKASI fani bo'yicha:

Fanning maqsad va vazifalari.Mehnat ta'limining didaktik tamoyillari Onglilik va faollik. Ilmiylik va tizimlilik. Nazariya va amaliyot birligi. Ta'lim-tarbiya birligi. Ko'rsatmalilik. Mustahkam va puxta o'zlashtirish. Yosh va individual xususiyatni hisobga olish. Izchillik. Unumli mehnat asosida o'qitish.

Mehnat ta'limida o'qitish shakllari Mehnat ta'limida,o'qitish shakllari. Dars (amaliy mashg'ulot). O'quv ishlab chiqarish brigadalari. O'quv sexlari. Usta hunarmandlarga biriktirib qoyish. Ekskursiya, kichik guruhlariga bo'lib o'qitish, yakka tartibda, jamoaviy, aralash o'qitish shakllari.

Mehnat ta'limida o'qitish metodlari.An'anaviy (og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, muammoli). No'anaviy o'qitish metodlari.

Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi fani va uning vazifasi Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi fanining mazmuni va fanning oldiga qoyilgan maqsad va vazifalar. "Ta'lim to'g'risidagi" qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da

mehnat ta'limiga oid g'oyalarning aks ettirilishi. Buyuk mutafakkirlarning mehnat ta'limiga oid fikrlari.

Maktab o'quv rejasida mehnat ta'limi, fanining qoyilishi, uning tarixiy taraqqiyoti Maktab o'quv rejasining mazmuni. Mehnat ta'limi darslarining o'quv rejadagi o'rni. Maktab o'quv rejasi bilan tanishtirish. O'rta Osiyoda mehnat ta'limining tarkib topishi. Maktab islohotida mehnat ta'limi fanining vazifalari. Mehnat ta'limining mazmuni, yo'nalishlar bo'yicha o'qitishga qoyiladigan talablar.

Umumta'lim maktablari 1-9 sinflarda mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash mazmuni Dastur mazmuni va uning yo'nalishlari. 5-7 sinflarda umumiy mehnat tayyorgarligi. 8-9 sinf kasbiy tayyorgarlik mazmuni. Akademik litsey va kasb-hunar kollej (maktab) larida o'qishni davom ettirish uchun tayyorgarlik.

Mehnat ta'limi darslarini rejalashtirish Rejalashtirishning maqsadi va vazifalari. Taqvimiy mavzuli reja. Dars rejasi va uning konspekti. Mehnat ta'limida rejalashtiruvchi hujjatlar. O'quv ustaxonalarida yasaladigan buyumlar royxati. Fanlarning o'zaro bog'lanish jadvali.

Mehnat ta'limi o'quv jarayonida ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasi. Ko'rgazmalilik didaktik tamoyillari asosida. Zamonaviy ta'lim vositalarining turlari va tavsifi. Ta'lim vositalarining rivojlanish istiqbollari. Elektron axborot ta'lim resurslaridan foydalanish.

Mehnat jarayonining tahlilivadidaktik tushunchalar. Mehnat jarayonining tahlili. Bilim, ko'nikma, malaka, kasb, ixtisoslik; mehnat jarayoni, texnologik jarayon.

Mehnat ta'limi darslarida amaliy darslarni tashkil qilish metodikasi. Amaliy darsga tayyorgarlik. Joriy, oraliq va yakuniy yo'riqnomalarni o'tkazish tartibi. Dars jarayonida o'qituvchining vazifasi. Xavfsizlik texnikasi qoidalariga e'tibor. Darsni yakunlash.

Xalq hunarmandchiligi texnologiyasini o'qitishni tashkil qilish. Xalq hunarmandchiligida ishlatiladigan materiallarni o'rgatish metodikasi. Xalq hunarmandchiligida ishlatiladigan asbob - uskunalar. Xalq hunarmandchiligi usullarini o'rgatish va buyum tayyorlash.

Mehnat ta'limi o'qituvchisining darsga va o'quv yiliga tayyorgarligi. Mehnat ta'limi o'qituvchisining darsga va o'quv yiliga tayyorgarligi. Kasbkorlik sifatleri. Asbob-uskunalar ishga sozlash. Xom ashyo va namuna tayyorlash. Ko'rgazmali qurollar, texnik vositalar. O'qituvchining shaxsiy fazilatleri.

O'quv ustaxonasini tashkil etish va jihozlash. Mehnatni ilmiy tashkil etish. O'qituvchining ish o'rni. O'quvchining ish o'rni. Asbob-uskuna va moslamalar. Sanitariya-gigiena va texnika xavfsizligi talablari.

Mehnat ta'limida baholash mezonleri. Mehnat ta'limida, baholash turlari. Mehnat ta'limi darslari jarayonida o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezoni. Baholashni ob'ektivligi va differentsialligi. Mehnat ta'limi darslarida baho turlari (amaliy, nazariy). Baholashda hisobga olinadigan omillar. Reyting tizimi asosida baholash.

Mehnat ta'limida didaktik va tarqatma materiallarni tayyorlash. Didaktik va tarqatma materiallarga qo'yiladigan talablar. Test savollarini tayyorlashga

qo'yiladigan talablar. Ko'rgazmali qurollarni tayyorlashga qoyiladigan talablar. Power Point dasturida taqdimot tayyorlash.

Mehnat ta'limiga, oid metodik ishlar. Umumiy o'rta ta'lim tizimida mehnat ta'limi fani bo'yicha metodik xizmatni tashkil qilish va amalga oshirish tizimi. Metodik ishlarni tashkil qilish shakllari, mazmuni. Metodik ishlarni boshqarish tizimi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish. Maktab sharoitida to'garaklar tashkil qilish. Sinflar, maktablar, tumanlararo ko'rgazmalarni tashkil qitish metodikasi. Maktabdan tashqari to'garaklarga jalb qilish. Fan olimpiadalariga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish.

Mehnat ta'limi dars jarayonida tarbiya. Mehnat tarbiyasi. Axloqiy tarbiya. Iqtisodiy tarbiya. Ekologik tarbiya. Estetik tarbiya.

Mehnat ta'limida ilmiy tadqiqot metodlari. Mehnat ta'limida ilmiy tadqiqot metodlari: kuzatish; suhbat, pedagogik ekskursiya, maktab hujjatlari va o'quvchilar bajaradigan ishlarni o'rganish, laboratoriya eksperimenti, matematik tadqiqot.

Mehnat ta'limida ekskursiyalarni amalga oshirish metodikasi. Ekskursiyaning maqsad va vazifalari. Ekskursiya ob'ektini tanlash. Ekskursiyaga tayyorgarlik. Ekskursiyani o'tkazish. Ekskursiyani yakunlash.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida to'garaklarni rejalashtirish va tashkillashtirish. To'garak mashg'ulotining rejasini tuzish. To'garak qatnashchilarining faolligini oshirish yo'llari. Ommaviy tadbirlarni tashkillashtirish. O'quvchilar ishlab chiqargan mahsulotlar ko'rgazmalari.

Mehnat ta'limida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash. Mehnat ta'limi darslarida interaktiv usullarni qo'llash. Mehnat ta'limi darslarida muammoli vaziyat, aqliy xujum, klaster usullarini qo'llash.

TEXNOLOGIYA TA'LIMI PRAKTIKUMI fani bo'yicha:

Fanning maqsad va vazifalari. "Texnologiya ta'limi praktikumi" fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- duradgorlik va chilangarlik asbob uskunalarini o'rganish, yog'ochga hamda metallarga ishlov berish texnologiyasini o'rganish, duradgorlik va chilangarlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar va jihozlar haqida tasavvurga ega bo'lishi, yog'och va metallarga ishlov berish texnologiyasi, sodda birikmalar va ularning turlari, metallarga sovuq xolda ishlov berish metodlarini tashkil etish;

- chilangarlik ishlari haqida, o'quv ustaxonasida xavfsizlik texnikasi qoidalari, va chilangarlikda ishlatiladigan asbob – uskunalar hamda moslamalar to'g'risida umumiy ma'lumotlarni bilishi kerak;

- qo'lda va stanoklarda bajariladigan oddiy ish jarayonlarini amalga oshirish usullaridan, turli buyumlarining asos chizmasini chizish, texnik modellashtirish, havfsizlik texnikasi va mehnat gigienasi qoidalariga rioya qilish, duradgorlik va chilangarlik jihozlaridan to'g'ri foydalana olish;

- simlar va yupqa tunikalarga ishlov berish texnologiyasi, prokat va shtamplash usulida olinadigan materiallarga ishlov berish texnologiyasi to'g'risida ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

- qo'lda va stanoklar yordamida turli xil buyumlarni bajara olish, detallariga ishlov berish, sodda konstruktiviyali buyumlar uchun asos va chizmasini chizish, ularni tayyorlash texnologiyalarini bilish, chilangarlik va duradgorlik jihozlarini ishga tayyorlash, metallarga sovuq holda ishlov berish yog'och va metallardan sodda buyumlarni tayyorlash bo'yicha kompetentsiyalarga ega bo'lishi, sozlash;

parchinlash, rezba qirqish turlarini o'rganishi, parmalash va charxlash usullarini, tayyor detallarga termik ishlov texnologiyasi to'g'risida malakaga ega bo'lishlari zarur.

TEXNIK IJODKORLIK VA DIZAYN fani bo'yicha

Fanning maqsad va vazifalari. Talabalarni texnik tafakkurini va mehnatga ijodiy munosabatini rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida fan texnika taraqqiyotini jahon standartiga chiqishni, maxsulot sifatini tubdan yaxshilashni, ishlab chiqarishning yuqori samaradorligini ta'minlay oladigan yosh avlodni tarbiyalash eng muhim vazifa hisoblanadi. Bo'lajak mutaxassislariga politexnik ta'lim berish orqali hozirgi sanoat ishlab chiqarishiga xos texnik texnologik-konstruktorlik va ishlab chiqarish faoliyatlarining asoslari egallanishiga erishiladi.

Bu fanning asosiy maqsadi va vazifasi texnologiya o'qituvchilariga umumiy o'rta ta'lim maktablarida va kasb-hunar kollejlarda, sinfdan maktabdan tashqari o'quv muassasalarida o'quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil qilishning ilmiy-metodik asoslarini o'rgatishdan iboratdir. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologiya (mehnat) o'qituvchisi texnik ijodkorligini shakllantirish masalasi ko'p qirrali bo'lib, u talabalarni ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashning samarali yo'llarini aniqlash va mazmunini muvofiq tanlash bilan birgalikda, o'quv jarayonida texnik ijodkorlikni bo'lajak mutaxassislarining ijtimoiy va kasbiy tayyorgarligi bilan umumlashtirishning aniq usul va vositalarini ishlab chiqishdek muhim pedagogik vazifani o'z ichiga oladi. Shuningdek ushbu jarayon vatanimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni aks ettirishi va zamonaviy ilmiy talablarga to'laroq javob berishi kerak

Texnik ijodkorlik talabalar egallayotgan bilimlarining mustahkamligi va mukammalligini tahminlash, ularda faol va mustaqil fikrlovchi shaxs xislatlarini shakllantirish, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyat turi hisoblanadi. Bu holat, ayniqsa bo'lajak mehnat va kasb tahlimi o'qituvchilarining fan asoslarini o'zlashtirishida, keyinchalik bu jarayonga bevosita rahbarlikni amalga oshirishda ijodiy ishlar shakllarini ishlab chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi.

TEXNOLOGIYA VA DIZAYN fani bo'yicha:

Texnologiya va dizayn fanining maqsad va vazifasi. O'zbekistondagi ishlab chiqarish turlari. Ishlab chiqarishda yangi texnika va ilg'or texnologiyalar. Fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillari va istiqbollari. Ishlab chiqarishni tayyorlashga oid texnologik hujjatlar.

Yog'och turlari va uning xususiyatlari. Yog'ochlarni ishlov berishda rejalash. Yog'och materiallarini yo'nish va yo'nish usullari, Yog'och materiallarini arralash. Yog'och materiallarini teshish. Tayyor buyumlarni pardozlash. Yog'och materiallariga ishlov beradigan qo'l va elektr asboblarning tuzilishi va ishlash

prinsipi. Yog‘och materiallariga ishlov beruvchi dastgohlar hamda elektr va mexanizatsiyalashtirilgan jihozlar.

Mashina, mexanizm elementlari va turlari. Yangi texnika va ilg‘or texnologiya asoslari. Texnologik xaritalar, ulami tuzish va foydalanish. Metall turlari va ulaming xususiyatlari.

Metallarga ishlov berishda rejalash. Metallarga ishlov berish texnologiyasi. Tayyor buyumlarni pardozlash. Metallarga ishlov berishda qo‘llaniladigan qo‘l va elektr asboblarning tuzilishi va ishlash prinsipi. Metallarga ishlov berishda qo‘llaniladigan dastgohlar hamda elektr va mexanizatsiyalashtirilgan jihozlar.

Mashina, mexanizm elementlari va turlari. Texnologik xaritalar, ulami tuzish va foydalanish. Pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta‘mirlash ish usullari.

Yurtimiz me‘morchiligi tarixi. Xona intereri hamda jihozlanish dizayni zamonaviy taraqqiyot yo‘nalishlari. Xona va fanlar bo‘yicha o‘quv kabinetlarida mebel va qo‘shimcha jihozlarni joylashtirish sxematik tasviri. Xona va fanlar bo‘yicha o‘quv kabinetlarida mebel va qo‘shimcha jihozlarni joylashtirish sxematik eskizlarini tayyorlash texnologiyasi.

Mehnatni muxofaza qilish qonuniyatlari asoslari. Mehnatni muxofaza qilish qonunlari va nizomlari. Texnika havfsizlik asoslari. Ishlab chiqarishda sog‘lom va havfsiz mehnat qilish sharoitini yaratish. Instruktsiyalar bilan tanishish turlari, xodimlarning asosiy mehnat xuquq va burchlari. Ishlab chiqarish sanoatida sanitariya-gigiyena talablari.

SERVIS XIZMATI fani bo‘yicha:

Servis xizmati fanining maqsad va vazifasi: Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘qitiladigan “Texnologiya” fani quyidagi yonalishlar asosida o‘qitiladi: servis xizmati, texnologiya va dizayn, umumlashtirilgan yo‘nalish. Mazkur fan servis xizmati yo‘nalishi mazmuni asosida ishlab chiqilgan. Servis xizmati yo‘nalishi mazmunidagi bo‘limlar asosida mavzular shakllantirilgan. Servis xizmati yo‘nalishi boyicha gazlamalarning turlari, turkumlanishi, olinishi va xossalari, tikuvchilik jihozlari, tikuv buyumlarini konstruksiyalash va loyihalash, tikuv buyumlarini tikish texnologiyasi, pazandachilik asoslariga oid mavzular ko‘zda tutilgan

Ushbu fanning maqsadi - talabalarga servis xizmati boyicha gazlamaga ishlov berish bo‘limi mazmunida texnologiya fanini 5-9 sinflarda o‘qitishda gazlama turlari, ularning olinishi, xossalari, qo‘llanilishi, tikuvchilik jihozlarining kelib chiqish tarixi, turlari, ulardan foydalanish, kichik ta‘mirlash ishlarini amalga oshirish, kiyim turlari, ularning asos chizmalarini konstruksiyalash, modellashtirish, andoza tayyorlash bichish va tikish texnologiyasi, mexanik usulda ishlov berish texnologiyasi, oziq ovqat mahsulotlari turlari, ovqat tayyorlash texnologiyasi, pazandachilikda foydalaniladigan jihoz turlari va ulardan foydalanish, nazariy va amaliy qurollantirish.

Fanning vazifalari - servis xizmati boyicha gazlama turlari, xossalari, kiyim chizma asoslarini konstruksiyalash, andaza tayyorlash uchun gavdadan to‘g‘ri o‘lchov olishni, kiyim fasonlarini o‘zgartira olish (modellashtirish), texnologiya asosida bichish va tikish, gazlamalarni, materiallarni to‘g‘ri tanlashga oid ko‘nikma

va malakalami shakllantirishni, oziq ovqat mahsulotlari turlari, ovqat tayyorlash texnologiyasi, pazandachilikda foydalaniladigan jixoz turlari va ulardan foydalanish vazifa qilib qoyadi.

“Servis xizmati” fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- kiyim chizma asoslarini konstruksiyalash, modellashtirish, bichish va tikish texnologiyasi, tikuvchilikda ishlatiladigan asbob-uskunalar va jihozlar haqida tasavvurga ega bo‘lishi, yengil kiyimlarga ishlov berish texnologiyasi, sodda bichimli kiyim turlarini loyihalash asoslari, maishiy tikuvchilik asbob – uskunalar va jihozlari, qo‘l va mashina ishlari, namlik – issiqlik ishlov berish, oziq ovqat mahsulotlari turlari, ovqat tayyorlash texnologiyasi, pazandachilikda foydalaniladigan jixoz turlari va ulardan foydalanishni tashkil etishni bilishi kerak;

- qo‘lda va mashinada bajariladigan oddiy ish jarayonlarini amalga oshirish usullaridan, turli bichimli tikuv buyumlarining asos chizmasini chizish, texnik modellashtirish, andazasini tayyorlash va tikish, havfsizlik texnikasi va mehnat gigienasi qoidalariga rioya qilish, tikuvchilik jihozlaridan to‘g‘ri foydalana olish, oziq ovqat mahsulotlari turlari, ovqat tayyorlash texnologiyasi, pazandachilikda foydalaniladigan jixoz turlari va ulardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak;

- qo‘lda va mashinada turli choklarni bajara olish, engil kiyimlar detallariga ishlov berish, sodda konstruksiyali buyumlar uchun gavdadan o‘lchov olish va asos chizmasini qurish, ularni bichish va tikish, tikuvchilik jihozlarini ishga tayyorlash, ayollar va bolalarning sodda bichimli engil kiyimlarini loyihalash va tayyorlash, oziq ovqat mahsulotlari turlari, ovqat tayyorlash texnologiyasi, pazandachilikda foydalaniladigan jixoz turlari va ulardan foydalanish boyicha malakaga ega bo‘lishlari zarur.

Tikuv jihozlari haqida asosiy ma’lumotlar. Tikuvchilik jihozlarining maqsad va vazifalari. Tikuvchilik jixozlarining rivojlanish tarixi. Tikuvchilik korxonalarining asosiy ishlab chiqarish sexlari va ulaming vazifalari. Tikuv mashinalarining paydo bo‘lish tarixi, hamda ulami ishlab chiqaruvchi zavod va firmalar to‘g‘risida umumiy tushincha. Tikuv mashinalarining sifati, estetikasi va asosiy turlari Mashinalaming sifati, puxtaligi va umrboqiyliigi, asosiy turlari, guruhlarga bo‘linishi: moki va bahya tikuv mashinalari; zanjirsimon bahya tikuv mashinalari, ulaming asosiy turlari. Tikuv mashinalarida xavfsizlik texnikasi qoidalari. Tikuv sexlari, tayyorlov, bichish va omborlarningjihoz turlari haqida asosiy ta'lumotlar Tikuvchilik sanoatida tayyorlov sexida materiallarni qabul qilish, o'lchash, nuqsonlami aniqlash va saqlash. Eksperimental tsexlarning uskunalar. Bichish tsexlarining asosiy texnologik jarayonlari. Tsex ichida transport vositalari. Asosiy xavfsizlik texnik qoidalari. Tikuv mashinalari klassifikatsiya detallari va ulaming tavsifi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
2. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. - T.: O‘zbekiston, 2019.

3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O‘zbekiston, 2017. - 48 b
6. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017. - 104 b.
7. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
8. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild, - T.: O‘zbekiston, 2018.
9. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – T.: Sharq, 1998.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // Xalq so‘zi, 2020 yil, 28 fevral.
12. Abdurashidov T. “Plasmassalarni qayta ishlash texnologiyasi” T.: “Musiqa” nashriyoti. 2010 yil.
13. Avazboev A.I. Kasb ta‘lim metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar. Metodik qo‘llanma. –Toshkent: TDPU, 2007. 30 b.
14. Anorqulova G.M, Abduqodirov G‘, Luxmonov D, To‘lqinova X. Texnologiya ta‘limi praktikumi/ Darslik. T.: Turon-iqbol 2018.
15. Babajonov M.A. “Texnologik jarayonlarni loyixalash” Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2009.
16. Muslimov N.A, Sharipov Sh.S, Qo‘ysinov O.A. Mehnat ta‘limi o‘qitish metodikasi, kasb tanlashga yo‘llash/ Darslik/ T. TDPU, 2014.
17. Muslimov N.A, Sharipov Sh.S, Sattorov.V.N, Davletov K.D. Mehnat ta‘limi o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma/ T.2009. 417b.
18. Muslimov N.A, Sharipov Sh.S, Qodiro vM. “Texnik ijodkorlik va dizayin”. T.: “TDPU”, 2010 yil
19. Qurbonov B, Muhliboyev M, Qurbonova G‘. Mehnat ta‘limi o‘qitish metodikasi, kasb tanlashga yo‘llash. O‘quv qo‘llanma. Guliston.: 2013 y.
20. Olimov A, Qosimov A. Mashinasozlik texnologiyasi. Toshkent O‘zbekiston-2003.
21. Raxmonberdiyev G‘R, Primqulov M.T, Toshpo‘latov Yu.T.”Qog‘oz texnologiyasi asolari” Toshkent-2009.
22. Raxmonberdiyev G‘R, Primqulov M.T, Toshpo‘latov Yu.T. “Yog‘och texnologiyasining asoslari” O‘qituvchi nashriyoti. Toshkent 2009 yil
23. Sotvoldiev Z. ”Dizayn asoslari” Toshkent 2008.

24. Usmonov K.V. Metall kesish asboblari. Toshkent 'O'qituvchi'-2004.
25. Xudoyberdiyeva M.R.. Kasb mahorati. Darslik/ T.: Faylasuflar milliy jamiyati, 2010.

Internet saytlari

1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www. pedagog. uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)
4. [www. edu. uz](http://www.edu.uz)
5. [tdpu-Intranet. Ped](#)
6. <http://www.allmath.ru/>